

6. Takrorlash

Yondosh mavzu:
Yovvoyi hayvonlar

Tenglama,
tenglamaning yechimi.



| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| 2 | 4 | 6 |
| 3 | 6 | ? |



1. So'roq belgilari ortida qaysi hayvonlar yashiringan?

| | | | |
|-------------|---|---|--|
| a | | | |
| b | | | |
| c | | | |
| $a + b + c$ | ? | ? | |



2. Tenglamani yeching.

$$x + 16 = 37$$

$$98 - y = 47$$

$$z - 15 = 21$$



3. Masalani ikki usulda: tenglama tuzib va arifmetik amallar yordamida yeching.

Toshkent hayvonot bog'iga 12 ta yangi nodir qush keltirildi. Ulardan 3 tasi qirg'iy, qolganlari kaklik. Hayvonot bog'iga nechta kaklik keltirildi?



4. Hisoblang. Natijani santimetrga o'girib yozing.

$$5 \text{ dm } 4 \text{ cm} + 2 \text{ dm } 5 \text{ cm}$$

$$2 \text{ dm } 6 \text{ cm} + 3 \text{ dm } 3 \text{ cm}$$

$$9 \text{ dm } 5 \text{ cm} - 7 \text{ dm } 3 \text{ cm}$$

$$8 \text{ dm } 6 \text{ cm} - 2 \text{ dm } 4 \text{ cm}$$



5. Maymunlar uchun ajratilgan pavilyonga daraxtlar ekildi. Har kuni har bir daraxtni sug'orish uchun 10 litr suv sarflandi. Agar har kuni 90 litr suv sarflansa, qancha daraxt ekilganligini sonlar nuri yordamida aniqlang.



6. Perimetri 14 cm ga, ikki qarama-qarshi tomoni uzunliklari yig'indisi 10 cm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rburchak chizing.



7. Jadval bo'yicha tenglamalar tuzing va ularni yeching.

| | | | | | | |
|--|---|--|---|--|---|----------|
| | x | | 8 | | 4 | Jami: 17 |
|--|---|--|---|--|---|----------|



8. Hayvonot bog'iga ikkinchi sinfning 97 nafar o'quvchisi 3 ta avtobusda kelishdi. Birinchi avtobusda 30 nafar o'quvchi, ikkinchi avtobusda bиринчи avtobusdagidan 3 nafar ko'п o'quvchi kelgan bo'lsa, uchinchi avtobusda qancha o'quvchi kelgan?



9. Katakchalar o'rniga harflar yozing. Hosil bo'lgan tenglamalarni yeching.

$$\square - 31 = 42$$

$$\square + 42 = 54$$

$$78 - \square = 15$$